

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

XORIJY DAVLATLARDA MEDIATA'LIM RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

*Turg'unboyev Farrux Bahodir o'g'li
Turg'unboyeva Dilshoda Suvonqul qizi
turgunboyefarrux14@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif xorijiy davlatlarda mediata'limga rivojlanishi hamda uning nazariy-metodologik asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, ta'lif-tarbiya, maktab, o'quvchi, talaba, xorij, dastur, reja, fan.

Axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti yuksak bosqichga chiqdi. Shunga monand barcha sohalar jadal rivojlanmoqda. Bugun biror soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishda ham u muhim omillardan biriga aylanmoqda. Elektron aloqa vositalari, internet, sun'iy yo'ldoshlar aynan ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, fotografiya, hujjatli va badiiy kino, axborot agentliklari, internet son jihatdan beqiyos o'sdi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, "uyali" telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash hamda mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish-mediadan ta'lidan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari keng yo'lga qo'yilmoqda. Ta'lif jarayonida media, ya'ni, internet, televideniye, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalaridan foydalanish o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlardan ta'lif amaliyotida bu sohadagi izlanishlar o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Bu pedagogika fanida o'ziga xos yo'nalish-mediata'lif paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Shuningdek ushbu tizim Yevropa va Amerika mamlakatlari tomonidan evolutsion holat sifatida qabul qilindi. Hozirda unga nafaqat moslashish, balki ijtimoiy madaniy taraqqiyotning garovi sifatida yondashib, uning imkoniyatlaridan ijodiy, tanqidiy foydalanilmoqda. Buni xorijiy davlatlarda mediata'limga puxta asoslangan tizimi, mexanizmi ishlab chiqilganligi bilan izohlash mumkin. Yevropa mamlakatlarining deyarli barchasida dastlabki maktab mediata'lif loyihibarini ishlab chiqishga e'tibor qaratilib, oliy o'quv yurtlarida amaliyoti zarur bo'lgan dasturlar tayyorlangan. Bu yo'ldagi ilk harakatlar XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lsa, oradan yigirma yil o'tgach Finlandiya (1970, 1977-yillar), Norvegiya (1974, 1977-yillar), Shvetiya (1980-yil)da mediata'lifni ta'lif dasturlariga kiritilishiga erishdi.

Finlandiya milliy ta'lif rejasida mediata'limga maqsadi ta'lif oluvchilarga mediata'limga jamiyatdagi o'rni, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni berish, media materiallaridan oqilona hamda ongli foydalanish, ular borasidagi o'z nuqtai nazarini ifodalash va media bilan hamkorlikka erishish malakalarini yuksaltirishdan iboratdir.

O'quvchilar mediata'lif orqali quyidagi ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi ko'zlangan:

– Turli vaziyatlarga rang-barang mediadan foydalanish asosida baho berish;

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

- Mediada berilgan materiallar asosida o‘zlashtirilayotgan o‘quv materiali bo‘yicha o‘zining shaxsiy fikr va qarashlarini shakllantirish;
- Media matnlarning mazmunini maqsadli tahlil qilish;
- Mediakomunikatsiyalarining jamiyatdagi o‘rni, o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholash, tahlil qilish;
- Mediada qayta tiklangan real voqelik hamda mavjud vaziyatlarning bir-biriga mosligiga erishish;
- Axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish;
- So‘z erkinligiga erishish;
- Axborotlarni muhofazalash;1.

Mediata’limning Germaniyadagi rivoji fransuz tadqiqotchisi K.Mets g‘oyalari bilan bog‘langan bo‘lib, ushbu g‘oya asosida Berlin texnika va Minyustr Universitetlarida media o‘quv kurslari tashkil etilganligi hammaga ayon.

Nemis tili, geografiya, san’at va ijtimoiy fanlar negiziga kiritilgan mediata’lim, o‘quvchilarning fuqaro sifatida o‘zini anglashini ta’minlash, unda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur edi.

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib, ijtimoiy zaruriyatni to‘g‘ri anglagan o‘qituvchilarning 72 foizi o‘z amaliyotlarida mediata’lim g‘oyalarini qo’llay boshlashgan. Bu ko‘rsatkicha yillar o‘tgani sayin oshib bormoqda2.

Germaniya mediata’lim rivojida tadqiqotchi X.Niyezitoning faoliyati ham alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotchining ilmiy izlanishlari o‘quvchilarda video madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Xalqaro miqyosda olib borilga ushbu loyihada Germaniya bilan birga Buyuk Britaniya, Chexiya hamda Vengriya kabi bir qator rivojlangan davlatlar ishtirok etgan.

Bugungi kunda Germaniya o‘qitish tizimida media pedagogika mustahkam o‘rin olgan. Media pedagogikaning predmeti sifatida media bilan muloqot qilish, munosabatga kirishishning turli shakllari belgilangan bo‘lib, u quyidag asosiy yo‘nalishlardan tarkib topgan:

- Media tarbiya
- Media didaktika
- Media tadqiqot.

1978-yilda tashkil topgan Shimoliy Saksoniya yoshlarini himoyalash departamenti tomonidan amalga oshirilayotgan mediata’lim, barcha Nemis viloyatlari uchun na’munadir. Uning asosiy maqsadi qonunchilik asoslari yordamida, bolalar va yoshlar auditoriyasini medianing zararli, xavfli ta’siridan himoyalashdan iborat.

1995-yilda Germaniya Federal viloyatlarining madaniyat vazirlarining ishtirokida tashkil etilgan konferensiyada mediata’limni tashkil etish, rivojlantirish dolzarb masala ekanligi e’tirof

1 Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompitentligini rivojlantirish texnologiyasi (“informatika va axborot texnologiyalari”fanini o‘qitish misolida) diss.natlib.uz

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish texnologiyasi (7-9)sinflar misolida. Rustamova.N.R -2019” Diss.natlib.uz.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

qilingan bo'lsa, yangi asr boshlari (1999-2003-y)da ushbu mamlakatda o'qituvchilarda mediakomponentlikni shakllantirish masalasi kun tartibiga qo'yila boshlandi.

Avstriyada mediata'lism sohasida ishlanmalarning tayyorlanishi, uni boshlang'ich va o'rta maktablarda majburiy fan sifatida o'qitilishiga erishilgan. Mamlakatning ta'lism vazirligida tashkil etilgan maxsus bo'lim bevosita mediata'lismni o'quv muassasalarini faoliyatiga samarali tadbiq etish masalalarini o'rganadi, shuningdek turli universitet va yoshlardan markazlarida sohadagi dolzab masalalar muhokama qilinadi. Bugungi kunda mamlakatning o'qitish tizimida "Mediakomponentlikni qo'llab quvvatlash ittifoqi" yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. 1994-yildan boshlab ta'lism muassasalarida 6 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bolalar hamda yoshlardan mo'ljallangan o'quv predmetini o'qitish joriy qilingan.

Shvetsariyada boshqa mamlakatlardan farqli ravishda hanuzgacha o'quv muassasalarida mediata'lismni o'qitishga oid aniq shakllantirilgan standartlar mavjud emas. Mamlakat viloyatlarining ayrimlarida mediata'lismning faqat asosiy g'oyalorigina yoritilgan. Shu sababli hududlarda o'quvchilar mediata'lismning imkoniyatlaridan foydalanishga nisbatan erkin yondashadi. 1976-yildan boshlab, Jenevada media pedagoglarning faol ishtiroki, tashabbusiga ko'ra Audiovizual Kengash tomonidan o'quvchilar o'rtasida maxsus kurslar tashkil etib boriladi. 1980-yillarda mediata'limga nisbatan amaliy yondashuv qaror topdi. Unga ko'ra o'qitish jarayonida asosiy e'tibor o'quvchilar tomonidan shaxsiy audiovizual media matnlarining yaratilishiga qaratilgan. Mazkur davrda hukumat tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ham ushbu ta'lism yo'nalishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. O'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga o'qitish maqsadi uchun 2001-yilda 100 mln. frank mablag' ajratildi.

Biroq, ayrim holatlarda o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash ham samarali natijasini bermadi. Ko'p yillik tajribaga ega o'qituvchilar o'z amaliyotlarida nashriy media (adabiyotlar, matbuot organlari-gazeta, jurnal)lardan foydalanishsa, o'rta va yosh avlodga mansub pedagoglar kasbiy faoliyatlarida multimediali kompyuter texnologiyalarini qo'llashga harakat qilishdi.

Shvetsariyada juda ko'p o'rta maktablar o'zlarining mediatekasi-kitoblar, jurnallar, CD-ROM, video, magnitofon, telemonitor, video kamera hamda kasetalariga ega edi. Bugungi kunda Tsyurix va Lozana universitetlarida oliy o'quv yurti darajasidagi mediata'lism ilmiy tadqiqot markazlari mavjud bo'lib, ular o'z faoliyatlarini mediata'lismni rivojlantirishga qaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Rustamova.N.R. Umumiy o'rta ta'lism muassasalarini o'quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish texnologiyasi (7-9)sinflar misolida.T.2019.
2. O'ktamov M. Pedagogika oliy ta'lism muassasalarini talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi ("informatika va axborot texnologiyalari"fanini o'qitish misolida). T.2020
3. E.D.Yusupov, Z.K.Kusharov. "Menejment nazariyasi".Toshkent-2019 yil.